

Amyobasimon bir hujayralilarning tuzilishi va ularning xillari.

Строение амёбных одноклеточных организмов и их виды.

The structure of amoebic unicellular organisms and their.

Yóldasheva Gavharoy Sanjarbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya yònalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Sarcomastigophora* tipining qanday hayot kechirishi, tashqi muhitga moslashishi, inson uchun foydali va zararli tamonlari yoritilgan. Shuningdek bu tipning sarkodalilar va xivchinlilar sinfi haqida ma'lumotlar berilgan. Sarkodalilar sinfining nurlilar, quyoshlilar, ildiz oyoqlilar va acantariya kenja sinflarini qayerlarda uchrashi, tuzilishi va xivchinlilar sinfini òsimliksimon xivchinlilar va hayvonsimon xivchinli kenja sinflari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о том, как живет саркомастигофора, как она приспосабливается к внешней среде, ее полезных и вредных аспектах для человека, а также приводится информация о классе саркомастигофор, строении и подклассах растительноподобных и анималоподобных чивчин. объяснил.

Abstract: This article describes how *Sarcomastigophora* lives, how it adapts to the external environment, and its beneficial and harmful aspects for humans. It also provides information about the class of *Sarcomastigophora*. The structure and subclasses of plant-like and animal-like chivchins are explained.

Kalit sòzlar: *Sarcomastigophora*, soxta oyoqlilar (pseudopodiylar), sarkodalilar, mastigaforalar, ildiz oyoqlilar, nurlilar, quyoshlilar, acantaria, chiganoqli amyobalar, farominiferalar.

Ключевые слова: саркомастигофоры, ложноножки (псевдоподии), саркодеи, мастигафоры, корненожки, скаты, солнца, акантарии, амёбы с раковинами, фароминиферы.

Key words: *Sarcomastigophora*, pseudopods (pseudopodia), sarcodales, mastigaphora, rhizopods, rays, suns, acantaria, amoebas with shells, pharominifera.

Bir hujayralilarning 70 000 dan ortiq turi bòlib, ular orasida *Sarcomastigophora*lar tipining 20 000 ga yaqin turlari mavjud. *Sarcomastigophora*lar nam tuproq va suvda hayot kechiradi. Erkin va parazit tarzida yashaydi. Yakka yoki koloniya holida hayot kechiradi. *Sarcomastigophora*lar-bir hujayrali hayvonlar tipiga mansub bòlib, ikkita sinfga bòlinadi

1.Sarkodalilar-sarcodina

2.Xivchinlilar-mastigophora

Sarcomastigophoralar tipi vakillarining tanasi qattiq qobiq bilan qoplanmagan. Hujayra sitoplazmasi faqat sitoplazmatik membrana bilan tashqi muhitdan ajralib turadi. Sitoplazmada hosil bòlib turuvchi òsimtalar yordamida hayvon asta-sekin siljiydi, shuning uchun ular soxta oyoqlilar(psevdopodiylar)deb ataladi.Sarcomastigophoralar tipiga mansub hayvonlar soxta oyoqlar yoki xivchinlar bilan harakatlanadi.

Sarkodalilar sinfi vakillarining hujayra qobiği juda yupqa bòlganligi uchun ma'lum shaklga ega emas.Ular soxta oyoqlar(psevdopodiylar) bilan harakatlanadi.Sarkodalilar ildiz oyoqlilar,nurlilar,quyoshlilar,acantaria kenja sinflarga bòlinadi.Ildizoyoqlilar (Rhisopoda) -sarkodalilar kenja sinfiga mansub bir hujayrali hayvonlar. Tanasining uzunligi bir necha mkm dan 3 mm gacha (ayrim foraminferalarda 2—3 sm gacha). Harakatlanish va oziqni tutish organi soxta oyoqlar, ayrim turlari va jinsiy hujayralarda xivchinlari ham bo'ladi. Bir qancha turlari (chig'anokli amyobalar, foraminferalar) da tashqi skeleti — chig'anog'i bor. Ikkiga bo'linish, ayrim turlari jinsiy gametalar kopulyasiyasi orqali ko'payadi. Keng tarqalgan, asosan, dengiz va chuchuk suvlarda, torfli botqoqlik va tuproqda uchraydi. Ba'zi turlari parazit. Amyobalar, chig'anoqli amyobalar, foraminferalar turkumlariga bo'linadi.Amyobalar chuchuk suvlarda,tuproqda ba'zan odam va hayvonlarda tekinoxòrlik bilan yashaydi.Chig'anoqli amyobalar turkumiga mansub jonivorlar ham chuchuk suvlarda va hovuzlarda tarqalgan.Bu turkum vakillari jinsiy yòl bilan kòpayadi.Farominferalar dengiz va okeanlarning 200-300 m chuqurligida yashaydi. Ayrim vakillar Markaziy Osiyoning shòrlangan yerusti suvlarda ham uchraydi.Bu turkum vakillarining chig'anoqlari yillar davomida dengizlar tagida tòplanib borib qalin chòkmalar hosil qiladi.Bu chòkmalar dengizlar ostida oxaktosh tog'lar hosil qiladi.Nurlilar iliq hovuzlarda kòpincha plankton holda yashaydi.Bu turkum vakillarini sitoplazmasida markaziy kapsula bòlib,ichki murakkab skeleti bòladi.Ikkiga bòlinish yòli orqali kòpayadi.Faqat acantaria turkumining ayrim vakillarida jinsiy kòpayish uchraydi.Quyoshsimonlar chuchuk suv va dengizlarda hayot kechirib,bir hujayrali hayvonlar ba'zi hollarda boshqa mayda hayvonlar bilan oziqlanadi.Bu turkum vakillari jinsiy va jinssiz yòllar bilan kòpayadi.

Xivchinlilar (Mastigophora) — sarkomastigoforalar tipiga mansub bir hujayrali hayvonlar sinfi.2 kenja sinf — o'simliksimon xivchinlilar va hayvonsimon xivchinlilarga ajratiladi. Xivchinlilarga 13turkumga birlashtiriladigan 7000 dan ortik tur kiradi. Tanasi duksimon, tuxumsimon, silindrsimon, sharsimon va boshqa shaklda. Ayrim xivchinlilar xivchini asosida kinetoplast (kelib chiqishi bilan mitoxondriyalarga yaqin bo'lgan DNK saqlovchi organoid) bo'ladi. Ko'pchilik dengiz va barcha parazit xivchinlilarning qisqaruvchi vakuoli bo'lmaydi. Hujayra yadrosi odatda bitta bòladi.Ayrim hollarda 2 yadroli va kòp yadroli xivchinlilar ham bor. Odatda, bo'yiga 2 ga bo'linish orqali jinssiz

ko‘payadi. Bu jarayon oxirigacha bormaganida (bo‘linadigan individlar ajralib ketmaydi) koloniya hosil bo‘ladi. Ko‘pchilik xivchinlilarda jinsiy ko‘payish gametalar kopulyatsiyasi orqali boradi. Tuban xivchinlilarda jinsiy ko‘payish izogamiya (bir xil tipdagi jinsiy hujayralarning qo‘shilishi), boshqalarda geterogamiya (har xil tipdagi hujayralarning qo‘shilishi)dan iborat. Erkin yashovchi xivchinlilar chuchuk suv va dengizlarda, qisman tuproqqa uchraydi. Ko‘pchilik xivchinlilar suvlar ifloslanishining biologik indikatorlari hisoblanadi. Bir qancha xivchinlilar odam va hayvonlarda parazitlik qilib, og‘ir kasalliklar (tripanosoma, leishmaniya va boshqalar)ga sabab bo‘ladi. Ayrim xivchinlilar termitlar ichagida simbioz yashab, qiyin hazm bo‘ladigan oziq moddalarning hazm bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa: Sarcomastigophoralar tipi vakillari bir hujayrali organizm hisoblanadi va tanasi qattiq qobiq bilan qoplanmaganligi uchun ma‘lum tana shakliga ega emas. Bu tip vakillar shuning uchun soxta oyoq yoki xivchinlar yordamida harakatlanadi. Bu tip 2 ta sinflarni öz ichiga oladi. Birinchi sarkodalilar sinfi 4 ta kenja sinflarga bōlinadi. Ikkinchi xivchinlilar sinfini esa 2 ta kenja sinfi ma‘lum.

References:

1. O.Mavlonov, SH.Xurramov, X.Eshova “Umurtqasizlar zoologiyasi” O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti 2006-yil
2. O.Mavlonov, SH.Xurramov, Z.Norboyev “Umurtqasizlar zoologiyasi “O‘quv qo‘llanma Toshkent “O‘zbekiston”2002-yil
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005).
4. WWW.ziyonet.uz
5. WWW.arxiv. uz